

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 9-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 11-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 15-noyabr 2026-yil

GIBRID TALIM MUHITIDA TALABALARGA “INGILIZ TILI O‘QITISH METODIKASI” FANIDAN DISKURSIV KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONI

Muminova Nasiba Solijon qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi, dotsent v.b., f.f.f.d. (PhD), ORCID: 0009-0009-2347-9353

E-mail: nasiba_9095@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyasini takomillashtirishning pedagogik va ilmiy-metodik zaruratlarini asoslash, savol va topshiriq biln birga ingiliz tili fanlaridan topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari o‘qitishda darslik va o‘quv reja tushunchasini kiritish, didaktik yondashuv asosida tavsiflash hamda ularni vazifasi nuqtai nazardan tasniflash, amaliyotga tatbiq qilish, ingiliz tili ta’lim mazmunini o‘qitish metodikasi bo‘yicha takomillashtirishda o‘quv topshiriqlar tizimini yaratish va ulardan foydalanish hamda innovatsion ta’lim texnologiyalar orqali Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyasini takomillashtirish metodikasiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Gibrid talim, gibrid ta’lim muhiti, ingiliz tili, diskursiv kompetentsiya, ingiliz tili ta’limi, o‘quv topshiriqlari, integratsion-metodik yondashuv, metodik, didaktik, pedagogik talab, modulli ta’lim, innovatsion ta’lim texnologiyalari, metodik yondashuv.

Аннотация. Статья посвящена обоснованию педагогической и научно-методической необходимости совершенствования дискурсивной компетенции студентов по английскому языку в условиях гибридной образовательной среды. Рассматриваются научно-теоретические основы разработки вопросов и учебных заданий по дисциплинам английского языка, раскрываются понятия учебника и учебного плана с позиций дидактического подхода, а также проводится их

классификация с точки зрения функционального назначения и практического применения. Особое внимание уделяется разработке системы учебных заданий и их использованию в целях совершенствования методики преподавания содержания обучения английскому языку. Кроме того, исследуется методика совершенствования дискурсивной компетенции студентов по английскому языку в условиях гибридной образовательной среды посредством применения инновационных образовательных технологий.

Ключевые слова: гибридное обучение, гибридная образовательная среда, английский язык, дискурсивная компетенция, обучение английскому языку, учебные задания, интегративно-методический подход, методика, дидактика, педагогические требования, модульное обучение, инновационные образовательные технологии, методологический подход.

Abstract. This article is devoted to substantiating the pedagogical and scientific-methodological necessity of improving students’ discursive competence in English within a hybrid learning environment. It examines the scientific and theoretical foundations for developing questions and assignments in English language subjects, introduces and characterizes the concepts of textbooks and curricula from a didactic perspective, and classifies them according to their functions and practical applications. Furthermore, the study focuses on developing a system of learning tasks and exploring their effective use in improving the methodology of teaching English language content. Particular attention is paid to the development of a methodology for enhancing students’ discursive competence in English through innovative educational technologies in a hybrid learning environment.

Keywords: hybrid learning, hybrid learning environment, English language, discursive competence, English language education, learning assignments, integrative-methodological approach, methodology, didactics, pedagogical requirements, modular learning, innovative educational technologies, methodological approach.

Kirish.

“Ingiliz tili o‘qitish metodikasi” fani ingiliz filologiyasi bakalavr yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ingiliz tili fanidan dars beradigan

o‘qituvchilarni tayyorlashni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Mazkur kurs bo‘lajak o‘qituvchilarni ingiliz tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha bazaviy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishni ko‘zlaydi. OTMning yuqorida tilga olingan ixtisosligida “Ingiliz tili o‘qitish metodikasi”ni o‘rganishning zaruriyati ta’lim tizimida ona tili fanining tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

OTMlari tizimida “Ingiliz tili” o‘quv fani sifatida asosiy va markaziy o‘rinni egallar ekan, o‘z-o‘zidan ravshanki, malakali ingiliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash hayotiy zaruriyatdir. Maktab ta’limida ham ingiliz tili eng asosiy va yetakchi o‘quv fanlaridan biri ekan, oliy ta’limning bakalavr tizimida “Ingiliz tili o‘qitish metodikasi” ham xuddi shunday mavqega ega. “Ingiliz tili o‘qitish metodikasi” pedagogik sikldagi fan sifatida o‘zining ilmiy tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalariga ega. Bu fan nafaqat hozirgi zamon ingiliz tili kursi, umumiy ingiliz tili tilshunoslik, ingiliz tili tarixi, singari fanlar bilan ham aloqador.


Adabiyotlar tahlili.

M.V.Klarin bu haqda shunday deydi: “O‘qituvchi tomonidan qo‘llanadigan pauzaning davomiyligi singari “mayda narsa” o‘quv dialogining, guruhdagi o‘zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta’sir o‘tkazadi deydi..” Psixolog-metodist Y.V.Korotayeva bu mavzuga doir shunday yozadi: “Agar “javobni kutuvchi pauza” o‘qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho‘zilsa, mulohazalar soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko‘payadi, ta’lim oluvchilarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari ko‘tariladi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o‘qish darajalari unchalik yuqori bo‘lmaganlar ham qo‘shila boshlaydi, ular orasidagi o‘zaro hamkorlik kuchayadi.”

Pedagogik faoliyatda Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyaviy yondashgan holda kommunikativ munosabat usullaridan to‘g‘ri foydalanib, talabalar ongiga quyidagicha ta’sir etilsa, ya’ni yonidan o‘tib ketayotganingizda talaba salomiga baland ovozda alik olish bilan so‘rashilsa, ularni ismi bilan chaqirilsa, auditoriyaga, yo‘lak devorlariga, talabalar turar joylariga, kutish yoki dam olish uchun ajratilgan katta xonalarga,foye va zallarga, kutubxona yo‘laklariga, kovorking markazlariga talabalarning faoliyati natijalarini ilib qo‘yilsa; talabalar rivojlanish sur’ati ko‘rinishi uchun

vaziyatga qarab, ma’lumotlarni yangilab turilsa; sharoitdan kelib chiqib, har faslda bir marta barcha talabalr bilan dam olish maskanlariga chiqilsa; ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etuvchi talabaning ismi-sharifi yozilgan taxtacha stollarga qo‘yilsa, (talabalarga o‘z ismini ko‘rish va kerakli insonligini his etish yoqqani uchun); faoliyati u qadar sezilmayotgan talabalarga diqqat qaratilsa, maqsadga muvofiqdir. Insoniyat bilim olish va bilim berishning shunday bosqichiga yetdiki, endilikda necha ming yillardan buyon foydalanib kelinayotgan o‘qitish usullari yetarli bo‘lmay qoldi.

Bugun o‘qitishning turli-tuman innovatsion ko‘rinishlari yuzaga kelmoqda. N.B.Adizova shunday deydi “Davr bilim berish, bolalarda muayyan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning o‘zgacharoq yo‘llarini topishni talab etmoqda. Ta’lim tizimi va uni yo‘lga qo‘yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtlarda dunyo miqyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini hamda samara beradigan yondashuvlar zaminida tashkil etishni taqozo etmoqda.



Muhokama.

Til tarixidan xabardor o‘qituvchi mumtoz adabiy asarlarning til xususiyatlari ustida ishlay oladi, dialektologiyani bilgan o‘qituvchi esa adabiy til bilan shevani qiyoslab, nutqdagi dialektal xatolarning oldini olishi yoki bartaraf etishi mumkin. Jadal rivojlanayotgan ijtimoiy-siyosiy hayot, fan-texnika asri va ingiliz tilidan o‘qituvchi kadrlarning aqliy salohiyati, ma’naviy qiyofasi, kasbiy mahoratiga jiddiy talablar qo‘ymoqda. Hozirgi kunda uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi har qanday davlatni zamon talablariga hamohang ravishda innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi va muhim omilga aylanganligi hammaga ma’lum.“Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida: “Har bir oliy ta’lim muassasasi o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or zamonaviy innovatsion talim va pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng tarzda joriy qilish, o‘quv-pedagogik faoliyatga, mahorat darslari o‘tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta’lim muassasalaridan malakali o‘qituvchilar va olimlarni jalb qilish prezidentimiznutqlarida ham ta’kidlangan. Hozirgi zamon jamiyatida ro‘y berayotgan yangilanishlar ko‘p jihatdan o‘qituvchi faoliyatidagi xususiyatlarni o‘zgartirish zarurligini

belgilaydi. Bizningcha, gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyasini takomillashtirish metodikasi ingilliz tili o‘qituvchisi shaxsiga quyidagi talablar qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir:

jamiyatimiz ijtimoiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetish hamda bu borada yoshlarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olish; ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan muntazam xabardor bo‘lish; o‘z mutaxassisligi bo‘yicha puxta, chuqur bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanish; ingiliz tilida grammatik qoidalarini puxta bilish, husnixat bilan yoza olish malakasiga ega bo‘lish; pedagogika, psixologiya fanlari asoslarini bilish, ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh hamda psixologik individual xususiyatlarini inobatga olgan tarzda faoliyat tashkil etish; ta’lim va tarbiya jarayonida eng samarali metod, shakl va vositalardan unumli foydalana olish; yuksak darajadagi pedagogik mahorat, ya’ni pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest), kommunikativlik layoqati qoidalarini chuqur o‘zlashtirib olish.

Gibrid ta’lim muhitida diskursiv kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik talablari

№	Kasbiy-pedagogik talablar	Mazmuni va tavsifi
1	Lingvistik tayyorgarlik	Ingliz tilining fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini chuqur bilish, til birliklaridan nutqiy vaziyatga muvofiq foydalanish.
2	Diskursiv kompetentlik	Mantiqiy izchil, mazmunan yaxlit, kommunikativ maqsadga muvofiq og‘zaki va yozma diskurs yaratish, nutqiy strategiyalarni to‘g‘ri tanlash.
3	Lingvodidaktik mahorat	Ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari, kommunikativ yondashuv va diskursga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

№	Kasbiy-pedagogik talablar	Mazmuni va tavsifi
4	Raqamli kompetentlik	Gibrid ta’lim platformalari, videomatnlar, interaktiv resurslar va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish.
5	Kommunikativ-pragmatik tayyorgarlik	Turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda muloqot maqsadi, suhbatdosh xususiyatlari va kontekstga mos nutqiy vositalarni qo‘llash.
6	Psixologik-pedagogik tayyorgarlik	Talabalarning individual, psixologik va kommunikativ xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish.
7	Refleksiv-tahliliy faoliyat	Nutqiy faoliyat natijalarini tahlil qilish, transkriptlar asosida xatolarni aniqlash, o‘z-o‘zini baholash va refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish.
8	Innovatsion-metodik faoliyat	Pocket AI Interaction texnologiyasi, individual muloqot trayektoriyasi va interaktiv mashg‘ulotlar asosida talabalarning mustaqil diskurs yaratish faoliyatini tashkil etish.
9	Uzluksiz kasbiy rivojlanish	Xorijiy tajribalarni o‘rganish, ilmiy-metodik yangiliklardan xabardor bo‘lish va kasbiy mahoratni muntazam takomillashtirish.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, gibrid ta’lim muhitida ingliz tili ta’lim yo‘nalishi talabalarining diskursiv kompetensiyasini takomillashtirish faqat lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon lingvodidaktik, kommunikativ-pragmatik, raqamli va refleksiv-tahliliy faoliyatning o‘zaro integratsiyasini talab etadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt vositalari asosida tashkil etiladigan individual muloqot, videomatnlar bilan ishlash hamda nutqiy transkriptlarni tahlil qilish talabalarning mustaqil fikrlash, kommunikativ vaziyatga moslashish va yaxlit diskurs yaratish imkoniyatlarini

kengaytiradi. Shu bois bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda mazkur kasbiy-pedagogik talablarni yagona lingvodidaktik tizim sifatida amalga oshirish muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Natija.

Ingiliz tili o‘qituvchisi tarjima qilish qobilyatiga ega bo‘lishi zarur. Uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak: Ingiliz tili o‘qituvchisi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur hisoblanadi. Uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak: a) nutqning to‘g‘riligi; b) nutqning boyligi (hikmatli so‘zlar, ibora va maqolalar, matallar va ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish); v) nutqning ifodaviyligi; g) nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan xoli bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarning noo‘rin qo‘llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish) so‘zlardan holi bo‘lishi, o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak; d) nutqning ravonligi; j) nutqning aniqligi.

O‘qituvchining kiyinish madaniyati (ozoda, sodda, bejirim kiyinishi), keyingi yillarda, ya’ni XXI asr boshlaridan o‘qitishda, xususan, ingiliz tili ta’limini Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyaviy yondashuvlar asosida berishga oid tendensiya kuchaydi. Tilga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyasini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlarda inson va unga tegishli borliq, ya’ni jamiyat, tabiat, madaniyat, idrok va boshqalar bilan chambarchas bog‘liqligi o‘rganiladi. Bu yo‘nalishda inson falsafa, ekologiya, tilshunoslik, mantiq va boshqa turli xil fanlar bilan o‘z tadqiqot obyekti sifatida o‘rganiladi. Garchi, inson o‘z faoliyatining barcha jabhalarini tilsiz tadqiq etib bo‘lmaydi. V.Gumbold ta’kidlaganidek, tilning mohiyatini anglash va uni izohlash

faqat ko‘p tomonlama asosga ega bo‘lgan inson faoliyati va u yaratgan dunyoda ko‘rish mumkin.

Yangi asrga kelib, kognitiv-pragmatik yo‘nalishni gumanitar fanlarning yetakchi yo‘nalishlaridan biri deb hisoblash mumkin. Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyaviy yo‘nalish inson mohiyatini til bilan chambarchas bog‘lab tahlil qiladi. Bugungi kun o‘qituvchisi, xususan, ingiliz tili ta’limi o‘qituvchisi ta’lim samaradorligiga erishishda o‘qituvchining talabalar bilan, bilan o‘zaro sherikligi qanday o‘rin tutishini; til ta’limi, birinchi navbatda, talabalarning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish orqali ularda ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirish vositasi ekanini chuqur anglashi kerak. O‘qitish metodlari ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyatining qanday kechishi, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. O‘qituvchining o‘zi o‘qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, talabalarga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o‘zini tutishi, nutqi o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Bugun o‘qituvchidan vaziyatga qarab fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish, yuzaga kelgan muammolarni anglash va uni yechish ko‘nikmalariga, vaziyatni tezda baholay olish malakalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida ta’lim tizimiga qo‘yilgan talabning o‘zgarib borishi natijasida ingiliz tili ta’lim jarayonini tashkil etishga yondashuvlar ham o‘zgarib, takomillashib boradi. Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyaviy yondashuvda esa o‘quv jarayonida talabalarning dars mashg‘ulotlardagi faolligini ta’minlash, qo‘yilgan ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga birgalikda harakat qilish orqali erishiladi, ularning o‘qishdagi muvaffaqiyati o‘z faoliyati evaziga ta’minlanadi, buni ular tezda his qilishadi Ingiliz tili ta’lim sohasidagi yechimini kutayotgan dolzarb vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiga bog‘liq.

Ta’lim va tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadga erishish, talabalarning o‘quv-biluv faoliyatini uyushtirish, ularni fan asoslarini chuqur egallagan bilimli, kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis qilib tarbiyalash o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan. “Strategiya” usuli ham mana shu ta’kidlangan fazilatlarni shakllantirishda qo‘l keladi. Savol va topshiriqqa tezkor to‘g‘ri javob berish kerak. O‘ylash uchun vaqt berilmaydi. Uchala savolning javobida

tutilgan talaba 1-tomonga, javobning ma’lum qismini ayta olgan talaba 2-tomonga, to‘liq javob berib, talaba 3-tomonga o‘tadi. 3-guruhdagi talabalarga yuqori reyting ballari qo‘yiladi, 1- va 2-guruhni ulardan o‘rnak olishga chorlanadi. 1- va 2-guruh bilan qo‘shimcha tarzda ishlash kerakligini, ularning mustaqil ta’limiga ham nazoratni kuchaytirishni o‘qituvchi o‘ziga reja qilib oladi. “Portfolio” usuli ham zamonaviyligi, shu bilan birga, o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi.

Buning uchun oliy ta’lim professor-o‘qituvchisi, eng avvalo, o‘zining portfoliosini yaratgan bo‘lishi, uni talabalarga taqdimot slayd asosida namoyish etishi va bu jarayon haqida talabalarda tasavvur paydo bo‘lgach, portfolio yaratish topshirig‘ini berish mumkin.“Portfolio” usuli quyidagi samaralarni beradi: talabaning shu kungacha erishgan muvaffaqiyatlarini tengdoshlariga aytish imkonini tug‘diradi; kursdoshlarining yutuqlaridan xabardor bo‘ladi; kelgusida o‘zi ham tengdoshlaridek yutuqlarga erishish uchun o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, rejalar tuzadi; og‘zaki nutqi rivojlanadi; o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyati tug‘iladi.

Demak, gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyaviy yondashuv asosida tashkil qilishda o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan interfaol usullar quyidagi natijalarni beradi: barcha ta’lim oluvchilarning ishtirok etish imkoniyati hosil qilinadi; o‘tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi; har bir ta’lim oluvchi o‘zining baholanishi mas’uliyatini his etadi; o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi; gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyaviy yondashuv asosida tashkil qilinadigan usullar talabalarga o‘zlarini o‘zlari to‘g‘rilash imkonini ham beradi; talabalar o‘zlari beradigan javobda oldingilarni takrorlamaslikka, muammoning yangi qirralarini ochib berishga intilishadi.

Gibrid talim muhitida talabalarning ingiliz tilidan diskursiv kompetentsiyaviy yondashuv asosida o‘qituvchi tomonidan tashkil qilinganligi talabalarda o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish hamda amalga oshirishda talabalarning tarbiyalanganligini, bilim darajasini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o‘quv materialini tanlash, uni tahlil qila olish, ilmiy materiallarni qayta ishlab, o‘quv materialiga aylantira olish, ayrim

murakkab matnlarni va o‘quv materialini o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirib borishi lozim.

Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarflab, katta natijalarga erishadi, o‘z ishining natijasi bilan mo‘’jizalar yaratadi, izlanuvchan, ijodkor bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin. Pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchi har bir talabaning qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, talabaga nisbatan ishonch, uning bilimini baholashda talabchan, adolatli bo‘lish, ularda o‘z-o‘ziga nisbatan talabchanlik munosabatini hosil qilish, mehribon, g‘amxo‘r bo‘lish, kutilmagan vaziyatga tushib qolganda, unga ko‘maklashish, turli nizolarni ahloqiy mezonlar asosida hal etish, bunda jamoaning fikr-mulohazalarini, albatta, e’tiborga olish, yoshlarga ishonch bilan qarash, talaba bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida, o‘ziga xos tarzda yondashish, pedagogik taktni saqlash muhim hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, Ta’lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi hamda muvaffaqiyati yoshlar mustaqilligi, ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berilishiga bog‘liq. Ta’lim metodlarida o‘qituvchi shaxsi, qiyofasi, uning dunyoqarashi, psixologik-pedagogik, metodik hamda maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo‘ladi. Pedagogik qobiliyatni rivojlantirishda o‘qituvchilik kasbiga qiziqish, havas katta o‘rin tutadi. Qiziqish va xohish bilan bajariladigan faoliyat, u qanchalik murakkab bo‘lmasin, hatto muvaffaqiyatsizliklarga uchramasin, kishida o‘z ishidan mamnuniyatlilik, katta ichki qoniqish hosil qiladi. O‘qituvchining bilimi qanchalik chuqur va keng bo‘lsa, talabalarga shu bilimni berish ishtiyoqi unda shunchalik zo‘r bo‘ladi. 2-kurs “Ingiliz tili o‘qitish metodikasi” fanining amaliy dars mashg‘ulotida “Ingiliz tili o‘qitish metodikasi”ning boshqa fanlar bilan aloqasi” mavzusi o‘tiladi. Mazkur mavzuni o‘tishda interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash o‘rinli hisoblanadi. Talabalardan “Muammoli vaziyat”, “Tezkor savolga tezkor javob” fayllariga kirish so‘raladi. Ushbu fayllar orqali ular e’tibori muammoli vaziyatlarga, qiziqarli interfaol metodlarga qaratiladi. Talabalarning mazkur vaziyatlardan chiqish faoliyatlari nazorat qilib boriladi. Eng maqbul va to‘g‘ri yechim aniqlanadi, dars mashg‘ulot so‘nggida yakuniy xulosalar chiqariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –T.: O‘qituvchi,1992. –256 b.

2. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.

3. O‘.Xoshimov. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2003. – 210 b.

4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge.: Cambridge University Press, 2019. – P. 10.

5. Rivers V. Chet tili o‘qituvchisi uchun qo‘llanma. – Kembridj.: Kembridj universiteti nashriyoti, 1968. – 403 b.

6. Bonk N.A. (1997). Metodika prepodavaniya angliyskogo yazyka.

7. А.А.Миролюбов. Методика обучения иностранным языкам// Традиции и современность. -2010. -464 с.

8. Н.Д.Галсьскова. Теория обучения иностранным языкам-М.:2006-81с.

9. Н.И.Гез.Лингводидактика и методика:учеб, пособие для студ. Лингв.ун-тов и фак, иняз. Высш.пед.учеб.заведений.

10. Edvard Entoni (E. Anthony). “English Language Teaching” 17 (63–67-p) 1963.

11. N.X.Kushiyeva. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari.: Avtoreferat.dok.filosofii (PhD). – T.: 2020. – 49 b.

12. Riskulova K.J. “Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: ped.fan.dok…diss.-T.: O‘zDJTU, 2017. 260 b.

13. G.T.Mahkamova. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: 2023.

14. K. Sh. Muradkasimova. Chet tillarni baholash kompetensiyasi: amaliyotdagi holat va ehtiyojlar. pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti. – 83 bet.

15. Xyuza X.R. Chet tilini o‘rganish psixologiyasi. – London: Oxford University Press, 1931. – 286 b.

16. Dipkel X. Til o‘rganish strategiyalari va ularning samaradorligi. – Berlin: Springer, 1958. – 174 b.

17. Kerrol Dj. Til va fikrlash: psixologik yondashuv. – Nyu-York: Wiley, 1964. – 351 b.

